ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

TABIIY TOLALARDAN KANOP TOLASINI TURLARI ULARNI OLINISHINI TAXLILI

Mirboboyeva Gulxayo, Ergasheva Nazokat
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Bu ilmiy maqolada tabiiy tollalarni turlari ularni tabiatda uchrash,o‘sib rivojlanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Kanop o‘simligini kelib chiqish tarixi tabiatda rivojlanishi,ulardan tollalarni olish texnologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar: Kanop o‘simligi, tabiiy tolalar, toksinlarni neytrallashtiradi, gipoallergenligi, kanop matosidan tayyorlangan kiyimlar,kanop tolasini xususiyatlari

Аннотация: В данной научной статье представлены сведения о видах натуральных волокон, их распространении в природе, росте и развитии. Представлены история происхождения растения конопли, его развитие в природе и технология получения волокон из него.

Ключевые слова: конопля, натуральные волокна, нейтрализует токсины, гипоаллергенность, одежда из конопляной ткани, свойства конопляного волокна.

Abstract: This scientific article presents information on the types of natural fibers, their natural distribution, growth, and development. It also covers the origins of the hemp plant, its development in nature, and the technology for extracting fiber from it.

Keywords: hemp, natural fibers, neutralizes toxins, hypoallergenic, hemp clothing, properties of hemp fiber.

Tabiiy tolalar — o‘simlik, hayvon va mineral manbalardan olinadigan ekologik toza tolalar bo‘lib, ularning olinishi jarayoni tabiiy manbaga bog‘liq ravishda farqlanadi. Kanop o‘simligi lub tola beruvchi qimmatbaho ekinlar guruhiga kiradi. Uning poyasidagi lub tolalar poya massasining 30 %, tolaning o‘zi esa 24 % tashkil etadi. Tolalari mustahkam, yumshoq, gigroskopik bo‘lib, brezent, qop-qanor, gilam, ip, mebel, to‘qimalari va shunga o‘xshash boshqa buyumlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Urug‘ida 20 % moy saqlaydi va bu teri oshlash, sovun pishirish va lak buyoq sanoatida keng ishlatiladi. Kunjarasi o‘g‘it bo‘lish bilan birga, chorva mollari uchun oziqa hamdir. Poya qoldiqlari qog‘oz va qurilish sanoatida ishlatiladi.

Botanik tavsifi. Kanop Hibiscus cannabinus L, Malvalar (Malvaceae) oilasiga kiruvchi bir yillik o‘tsimon o‘simlik. Ildiz tizimi – o‘q, yaxshi rivojlangan, tuproqqa 2 m va undan ortiq chuqurlikka kirib boradi. Poyasi yumaloq yoki kuchsiz qovurg‘ali, balandligi 2-5 m, shoxlanadi, antosion rangli, yo‘g‘onligi poyaning asosida 1,5-2 sm.

Barglari navbatlashgan, pastkilari oddiy, o‘rtadagisi buklangan, yuqoridagisi lansetsimon, cheti tishsimon qirrali.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12



1-rasm Kanop o‘simligi guli

Guli yirik, diametri 7 sm va undan ham ko‘p. Tojbarglari beshta, sariq, och sariq, pushti. Nastarin (siren) rangli. Tojbargning ichi to‘q qizil yoki och sariq. Gullash pastki gullardan boshlanadi. Kanop o‘zidan changlanadi, changchilari rivojlanmasdan qolgan gullar chetdan changlanishi kuzatiladi.

Kanop (*Hibiscus cannabinus*) — g‘o‘zadoshlar oilasiga mansub lub tolali bir o‘simlik, tolasi uchun ekiladigan ekin. Kanop tolasi — kanop o‘simligi poyasidan olinadigan uzun tola. Ingichka, mayin va pishiq, nam tortish xususiyati (gigroskopikligi) yuqori bo‘ladi. Kanop tolasi olish uchun kanop o‘simligining poyasi yetguncha quritiladi. Kanop yovvoyi holda Janubiy Afrikada va Markaziy Hindistonda uchraydi. Vatani Hindiston. Eron, Xitoy, Yava va Sumatra orollarida, Afrika, Amerika (AQSH, Braziliya, Kuba), Rossiyaning j anubda ekiladi.

2-rasm Kanop o‘simligi



O‘zbekistonda 20-ekila boshlagan (1925-maqsadlarida 275 ga s/ga ni tashkil qilgan). 1,5–2 m chuqurlikka kirib yerlarda ildizning asosiy taraladi. Poyasi tik o‘sadi, m gacha, uchki tomoni bandlari uzun. Gullari yirik, (5–7 mm), barg qo‘ltig‘ida tuxumsimon ko‘sakcha, uz. 2—3 ta urug‘i bor. Urug‘i 3 vazni 18—24 g, uz. 3–5 mm, asrning 30-yillaridan boshlab yilda Sirdaryo viloyatida tadqiqot maydonga ekilgan, hosildorlik 3 Kanopning o‘q ildizi tuproqqa boradi. Sug‘oriladigan qismi 30—50 sm chuqurlikda rangi yashil, tukli. Bo‘yi 1,5—3,5 shoxlanadi. Barglari yirik, barg och sariq (deyarli oq) qisqa bandli joylashadi. Mevasi 5 uyali 2,5 sm, eni 1—2 sm, har bir uyada qirrali, to‘q kulrang. 1000 tasining eni 2,5–4 mm. Kanop. namga,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

haroratga va yorug‘likka talabchan. O‘sish davri 124—145 kun. Kanop urug‘i tarkibida 18—20% texnika moyi bor. Moyi lok-bo‘yoq sanoatida, sovun tayyorlashda ishlatiladi. Kuruq poyasidan 16—20% to‘qishga yaroqli tola olinadi (qarang Kanop tolasi). Kanop almashlab ekishda kuzgi bug‘doy, dukkakli don, bedadan keyin ekiladi. Ekishdan avval yer kuzda 28—30 sm chuqurlikda shudgor qilinadi. 50x10—12 sm sxemada, urug‘ olish uchun qator orasi 60 sm qilib yakka qatorlab ekiladi. Poya olish uchun 30—35 ga kg/ga urug‘ sarflanadi (yaganalangandan so‘ng ko‘chat qalinligi 160—180 ming tup/ga). Urug‘ olish uchun 10–12 kg/ga urug‘lik sarflanadi. Urug‘ 4—6 sm chuqurlikka ko‘miladi. Ekinni parvarish qilish, qatqaloqqa qarshi kurash, qator oralarini ishlash, oziqlantirish va sug‘orishdan iborat. Vegetatsiya davrida 4—5 marta kultivatsiya qilinadi, 2 marta oziqlantiriladi. Kanop suvga talabchan. Yer osti suvlari 1,0— 1,5 pastda joylashgan o‘tloqi-botqoqi tuproqlarda 5—7 marta, yer osti suvlari chuqur joylashgan tuproqlarda 8— 10 marta sug‘oriladi

1. Sug‘orish normasi 800-1000 m3/ga. Kanop o‘rtacha 1 ga yerdan 100—120 s ko‘k poya va 4—5 s urug‘ beradi. O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlarida yuqori agrotexnikani qo‘llab 150—180 s/ga ko‘k poya va 8—9 s urug‘ olish mumkin. Kanop tolasi odatda erta gullash va urug' shakllanishi o'rtasida yig'iladi. O'rim-yig'imdan so'ng, xo‘llash jarayondan o'tadi. Xo‘llash,yuvish o'simlikning ikki xil tolasi o'rtasidagi bog'lanishlarni buzishga yordam beradi: bosh (uzun tashqi tolalar) va kalta (qisqa ichki tolalar).

"Ximka" tayyorlash uchun maydalangan quritilgan kanop organik erituvchiga (etil spirti, efir) namlanadi va qaynatilmasdan isitiladi, siqib chiqariladi va bug'lanadi.

Kanop tolasi — kanop o‘simligi poyasidan olinadigan uzun tola. Ingichka, mayin va pishiq, nam tortish xususiyati (gigroskopikligi) yuqori bo‘ladi. Kanop tolasi olish uchun kanop o‘simligining poyasi yetguncha quritiladi. Kanop o‘simligi O‘zbekistonda ham ekilgani uchun kanop tolasi mahalliy material hisoblanadi.



2-rasm Kanop tolasini quritish jarayoni

Undan, asosan, qoplik gazlama, o‘rov materiallari, brezent, kanop ip (arqon) olinadi o‘rilganidan so‘ng dalaning o‘zida maxsus mashinada boshoqlari, uruglaridan tozalanadi. Tozalangan poyalar bog‘-bog‘ qilinib, kanop zavodlarida maxsus eritmali suv to‘ldirilgan hovuz yoki suv havzalarida ivitiladi. So‘ngra tola ajratish mashinasida po‘stloqdan tolalar ajratib olinadi va me’yoriga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Kanop (xemp) matosi yumshoq va mustahkam, uzoq muddatga chidamli bo‘lib, doimiy foydalanishda hatto yanada yaxshilanadigan ajoyib xususiyatlarga ega. Uning chidamliligi kanop tolalarining o‘ziga xos tuzilmasi bilan ta’minlanadi: tashqi ta’sirlarga bardoshli, 90 daraja haroratda yuvilganida deformatsiyalanmaydi va buzilmaydi, kiyish jarayonida shaklini yo‘qotmaydi.



3-rasm Kanop tolasini quritish jarayoni

Kanop matosi doimiy foydalanishda yanada faol bo‘lib boradi va quyidagi foydali xususiyatlarini saqlab qoladi: toksinlarni neytrallashtiradi, kasallik chaqiruvchi mikroblarning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi, teri almashinuvi jarayonlariga xalaqit bermaydi. Uning gigiyenikligi tabiiy membrananing xususiyatlari bilan ta’minlanadi: tabiiy mato tana yuzasida "issiqxona" effekti hosil qilmaydi, bu esa teriga erkin nafas olish imkonini beradi. Kanop matosi issiq ob-havoda tanani ortiqcha qizib ketishdan, sovuqda esa muzlashdan himoya qiladi.



4-rasm Kanopni to‘qish jarayoni

Kanop matosi (zig'ir matosi kabi) inson organizmining normal issiqlik almashinuvini saqlab turadi: qishda u bilan sovuq emas, yozda esa issiq emas. Terimiz uchun zararli bo‘lgan ultrabinafsha nurlarni kanop matosi deyarli 95 foizga ushlab qoladi, boshqa matolar esa atigi 30–50 foizgacha. Kanopdan olingan mato yuqori darajada chidamli bo‘lib, uni qayta ishlaganda ham o‘zining tabiiy, foydali xususiyatlarini saqlab qoladi. Biologik faol bo‘lib qoladi, teri bilan yumshoq aloqa qiladi va terini tashqi muhitning salbiy ta’sirlaridan — og‘ir metallar tuzlari, noqulay harorat va namlik muhitidan, hamda ortiqcha UV nurlanishidan himoya qila oladi. Uning gipoallergenligi esa shundan dalolat beradiki, kanop o‘simligining o‘zida begona o‘tlar, zararkunandalar va o‘simlik kasalliklariga qarshi toksik kimyoviy moddalar ishlatilmaydi. Kanop o‘sgan joylarda daraxtlar va butalar kasallanmaydi, hasharot-zararkunandalar uchramaydi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Kanop matosining davolovchi va profilaktik xususiyatlari:

Gipoallergenlik: kanop xom ashyosida zararli kimyoviy moddalar ishlatilmagani sababli, u terida allergik reaktsiyalarni keltirib chiqarmaydi. Kanop o‘sgan joylarda boshqa o‘simliklar ham sog‘lom bo‘ladi, zararkunandalar paydo bo‘lmaydi.



5-rasm Kanop matosi

Gigiyenik xususiyatlar: tabiiy membranaga ega bo‘lgan ushbu mato tana yuzasida issiqlikni ushlab qolmaydi, teri erkin nafas oladi. Natijada tana issiqda qizib ketmaydi, sovuqda esa muzlamaydi.

Himoya xususiyatlari: kanop o‘simligi dorivor xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli, undan tayyorlangan mato terini tashqi zararli ta’sirlardan (og‘ir metallar, noqulay iqlim, UV nurlari) himoya qiladi.

Qo‘shimcha afzalliklar: kanop matosidan tayyorlangan kiyimlar tana faoliyatini kun davomida qulaylashtiradi, terini tirnash xususiyatidan xoli qiladi, tetiklantiruvchi ta’sirga ega. Doimiy kiyishda u yanada faol bo‘lib boradi va kanopning foydali xususiyatlarini saqlab qoladi. Ushbu kiyimlar hech qachon statik elektr yig‘maydi.

Xulosa.Maqolada kanop tolasini kelib chiqishi uni rivojlanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.Kanop tolasi lub tola ya’ni poya po‘stlog‘idan olinadigan tola bo‘lib xuddi paxta,zig‘ir tolasi kabi o‘sib rivojlanadi.Kanop tolasini gullash jarayoni uni xususiyatlari pishib yetishtirilishi xaqida ma’lumotlar keltirilgan.Kanop matosini gipoallergenlik, gigiyenik xususiyatlar, himoya xususiyatlari, qo‘shimcha afzalliklar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirboboeva G., Isroilova N., Rakhmonova M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 11-16.

2.Mirboboyeva G. A. QO ‘LDA BAJARILADIGAN KASHTA CHOKLARI TURLARINI O ‘RGANISH //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 870-873.

3.Maxmudjon T., Gulxayo M. GAZLAMALARNI BO ‘YASHDA ISHLATILADIGAN BO ‘YOQLAR HAQIDA MA’LUMOTLARNI O‘RGANISH //IZLANUVCHI. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 304-307.

4. Mirboboyeva G. A. et al. ZIG ‘IR TOLASINI OLISH TEXNOLOGIYASINI QADIMGI USULLARI //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 8. – C. 702-707.

5. MG Abdusattorovna, UN Qosimjonovna Retro style in modeling women's clothing Asian Journal of Multidimensional Research 10 (9), 372-376 6.Mirboboeva Gulhayo Abdusattorovna Tursunov

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

Davron Shamsiddin ogli (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. academicia globe: inderscience research, 4(03), 246–251

7.Abdusattorovna M. G. The Art of Model Crafting: Utilizing A Spectrum of Paint Mediums //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – T. 19. – C. 48-54.

8. Tursumatova S., Tursunov D., Isroilova N. Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 204-209.

9. Isroilova N. RESEARCH ON THE PRODUCTION OF MEDICAL SUITS BASED ON FLAX FIBER FABRICS //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 405-409.

10. Isroilova N. ANALYTICAL STUDY AND FORMATION OF THE ASSORTMENT OF WOMEN'S LIGHTWEIGHT CLOTHING //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 445-451.

11. Nozimjonovna, O. I. (2022). CONSTRUCTIVE ANALYSIS OF MODERN CIRCULAR NEEDLE KNITTING MACHINES. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(06), 75-79.